

HUDUDLAR IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ZARURIYATI

Muxammadjonov Rustambek Oybek o'g'li¹

¹ *O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich¹

¹ *O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 06.05.2025

Revised: 07.05.2025

Accepted: 08.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

*ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlanish, mintaq
iqtisodiyoti, hududni
rivojlantirish, investitsiya,
xorijiy sarmoya.*

Ushbu maqolada hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KIRISH. Iqtisodiyot bozor modelini takomillashtirish jarayonida ishlab chiqarishni yangi texnikaviy asosda modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish va rivojlantirishga, ishlab chiqarishda ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini faollashtirishga, moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohasini zamonaviy ilmiy-texnik asosda qayta qurishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. XX asrning oxiri-XXI asrning boshlarida xo'jalik tizimidagi innovatsiyalar jahon iqtisodiy taraqqiyoti tendensiyalarining farqlovchi xususiyatiga aylanib, rivojlangan mamlakatlarda YAIM o'simining 85% iga ular tufayli erishilmoqda.

Romash M.V., Shevchuk V.I. larning asarlarida "investitsiyalar" iqtisodiy tushunchasining turli talqinlari investitsiyalarning asosiy vazifalarini shakllantirishga asos bo'ladi. Takror ishlab chiqarishning ishlab chiqarish bosqichi uchun resurslarni shakllantirishni ularning tarkibiga kiritish zarur. Bundan tashqari, hozirgi iqtisodiyotni

modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash davrida quyidagi innovatsion resurslarni shakllantirish talab etiladi:

a) yangi turdagi texnika, yangi texnologiyalar, yangi materiallar, yangi darajadagi malaka va bilimlar;

b) zamonaviy takror ishlab chiqarish asosiy institutlarini restrukturizatsiyalash;

v) kapital yangi tarkibiy tizimini hosil qilish;

g) xo'jalik tizimlarini va butun milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish;

d) xo'jalik tizimini innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tkazishning resurs ta'mini. Investitsiyalarning mazkur vazifasi investitsiya omillarining innovatsion omillar bilan obektiv bog'liqligi, ularning ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki bilan belgilanadi;

ye) bandlik muammosining hal qilinishi, ijtimoiy soha va investitsiyalashning boshqa ijtimoiy samaralari bilan bog'liq ijtimoiy vazifalar guruhi;

j) iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tartibga solish.

Mazkur yondashuvga ko'ra, "investitsiyalar" va "innovatsiyalar" tushunchasi o'zaro uzviy bog'liqdir. Bu yana investitsiyalarni obektiga ko'ra, tasniflashda ham kuzatiladi:

- moliyaviy resurslar (pul mablag'lari, maqsadli bank qo'yilmalari, paylar, qimmatbaho qog'ozlar);
- moddiy resurslar (mashinalar, uskunalar);
- intellektual qiymatlar (patentlar, nou-xau, texnologiyalar).

Investitsiyalarga aniq bir ta'rif berilmagan. Jumladan, prof. D.G'.G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi". Prof. N.H.Haydarov investitsiyalar mazmun-mohiyatiga quyidagi ta'rifni beradi: "Investitsiya - bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxs yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obektiga sarflashidir". Shu jumladan, qishloq xo'jaligidagi investitsiyalar to'g'risida S.R.Umarov shunday ta'rif beradi: "Investitsiya - bu kelajakda foyda yoki ijtimoiy samara olish uchun investor tomonidan qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ma'lum bir muddatga sarflangan barcha turdagi moddiy-texnik va intellektual boyliklardir". SH.I.Mustafaqulovning ishlarida mintaqalardagi tabiiy resurslar zahirasi, investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar,

infratuzilma holati, hududlarning investitsion faollashuviga ta'sir ko'rsatishi, bunda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi investitsion salohiyat va iqtisodiy salohiyat ko'lamining yuzaga kelishini ta'minlashi yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

D.S.Almatova tomonidan mintaqalarda tadbirkorlik subektlarining investitsion-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini asoslab berish hamda ularni samarali rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Olimlarning asarlarida bozor mexanizmining xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi turdagi texnikani takror ishlab chiqarish va uning xususiyatlari muammosi batafsil o'rganilgan. Yangi turdagi texnika kabi bunday muhim investitsiya resursini takror ishlab chiqarish xususiyatlari qatoriga bizning fikrimizcha, quyidagilarni qo'shimcha ravishda kiritish joiz:

- barcha dastlabki investitsiya resurslarining alohida bir butunligi va innovatsionligini;
- hayotiy sikli oxiriga qadar barcha yangi turdagi texnikani saqlash kafolati bilan iste'mol qilish bosqichida o'z xossalarini ishlab chiqarish zaruriyatini;
- venchur kapitali ahamiyatining keskin oshishi;
- fan, ishlab chiqarish va bozor integratsiyasini;
- tadbirkorlik resursining ancha oshgan rolini.

Yangi texnologiya kabi murakkab investitsion resursni takror ishlab chiqarish xususiyatlari qator holatlar bilan belgilanadi:

- birinchidan, texnologiyalarning resurs sifatidagi xususiyatlari bilan (texnologiya–ilmiy-texnik bilimlar, jarayonlar, materiallar, uskunalar, tashkil qilish va boshqarishning bir butun majmui bo'lib, ulardan mahsulot ishlab chiqarish va (yoki) foydalanish);
- ikkinchidan, iqtisodiyot xususiyatlari, holatining o'ziga xosligi va uning texnologik asosi;
- uchinchidan, ijtimoiy va ilmiy-texnik sohalar, butun bir iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan.

Mazkur holatlar tahlili investitsiya resursi kabi yangi texnologiyalarni takror ishlab chiqarishning quyidagi xususiyatlarini ajratishga asos bo'ladi:

- ilmiy-texnik, tashkiliy-boshqaruvchilik kabi dastlabki ilmiy bilimlar majmuining bir butunligi;
- ijtimoiy, ruhiy va boshqa bilimlar. Ularning mavjudligi iqtisodiyotning zamonaviy makroiqtisodiy tizimlarini takror ishlab chiqarish qobiliyatini belgilaydi, ular boshlang'ich innovatsion resurs sifatida chiqadi;

- yagona takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida, shu jumladan, taqsimlash-ayirboshlash jarayonida mehnatni intellektuallashtirishning yuqori darajasi;
- odatda yangi texnikani takror ishlab chiqarish, aniqrog'i, texnologiyalarni takror ishlab chiqarishning vaqtda ustuvor bir qancha jarayonlari bilan uzviy aloqasi;
- xo'jalik tizimini innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tkazishga, ishlab chiqarish apparatini yangilashga belgilovchi ta'siri;
- yaqqol ifodalangan tarmoqlararo va mintaqalararo xususiyat;
- foydalanilayotgan investitsiya resurslarining ko'proq yalpi samaradorligi;
- yangi tizimli texnikani takror ishlab chiqarishda ham fan, ishlab chiqarish va iste'mol bosqichida ishlab chiqarishning davom etishi sifatida bozorning yuqori integratsiyasi;
- investitsiya manbalarining xilma-xilligi, amalda barcha turdagi kapital turlaridan (aksionerlik, venchur, amortizatsion, bank, obligatsion, payli va h.k.) foydalanish imkoniyati.

P.Samuelsion investitsiya deganda iqtisodiy va (yoki) ijtimoiy samara olish maqsadida kapital qo'yish; kapitalni takror ishlab chiqarishga (uni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashga) yo'naltirilgan xarajatlar; ushbu davrdagi ishlab chiqarish faoliyati natijasida kapital mol-mulk qiymatining joriy o'sish holati; mazkur davrda iste'mol uchun foydalanilmagan daromad qismini tushunadi.

Garchi "investitsiyalar" tushunchasining turli mualliflardagi talqini turlicha bo'lsada, ularning asl mazmuni quyidagicha: investitsiyalar – bu pul mablag'lari, intellektual mulk, binolar, inshootlar bo'lib, ularni kelajakda kengaytirish maqsadida joriy iste'mol uchun ishlatilmaydi, buning natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa samaralar olinishi zarur. "Investitsiya" tushunchasining keltirilgan barcha ta'riflari mazkur maqsadga innovatsiyalarga qo'yilmalar yo'li bilan erishish mumkinligi to'g'risida xulosa qilish uchun asos bo'ladi. Shu sababli innovatsion faoliyat natijasida birdaniga emas, balki ma'lum vaqt o'tgandan keyin iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa samaralar olinadi. Bu uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgan "investitsiyalar" tushunchasiga mos keladi.

Ushbu vaziyatda bosqichma-bosqich investitsiyalashni ajratish va o'rganish maqsadga muvofiq. Agar innovatsiyalar – bu aniq obekt ko'rinishidagi ilmiy faoliyat natijasi bo'lsa, g'oyaning tug'ilishidan to aniq obektni ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqich – bu yangilik bo'lib, mazkur bosqichlarda daromad keltirmaydi, ammo kelajakda samara olishga yordam beradi. Bu esa "investitsiya" tushunchasiga mos keladi. Shu nuqtai nazardan "yangiliklarga investitsiyalar" va "innovatsiyalarga investitsiyalar" tushunchasini ajratish zarur. Ulardan

har biri uchun mos ravishda, moliyalash turli manbalari mos keladi.

“Innovatsion investitsiyalash”, “innovatsiyalarga investitsiyalar”, “yangiliklarga investitsiyalar” kabi tushunchalarni ko‘rib chiqamiz va aniqlashtiramiz. Innovatsion investitsiyalash - innovatsiyalarni investitsiyalashning yangi shaklidir (innovatsiyalarni moliyalashning yangi manbalari ko‘zda tutiladi). Innovatsiyalarga investitsiyalar – innovatsiya resurslarini takror ishlab chiqarishga qo‘yiladigan yoki innovatsiyalar ko‘rinishida jalb qilinadigan (texnika, texnologiya, yangi malakaga ega bo‘lgan kadrlar, axborot resurslari, intellektual resurslar va boshqalar) mablag‘lardir. Yangiliklarga investitsiyalar – qaysidir faoliyat sohasiga uning samaradorligini oshirish bo‘yicha fundamental, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar yoki eksperimental ishlarning rasmiylashtirilgan natijasiga investitsiya qo‘yilmalaridir. Yangiliklar quyidagi ko‘rinishlarda rasmiylashtirilishi mumkin: kashfiyot, ixtiro, patentlar, tovar belgilari, ratsionalizatorlik takliflari, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, texnologiya, boshqaruvchilik yoki ishlab chiqarish jarayonida hujjatlashtirish; tashkiliy, ishlab chiqarish yoki boshqa tuzilmalar, nou- xau, tushunchalar, ilmiy yondashuvlar yoki tamoyillar, hujjatlar (standartlar, tavsiyalar, uslublar, ko‘rsatmalar va h.k.), marketing tadqiqotlari natijalari va h.k.

Investitsiyalar vaqt va makonda innovatsiyalarni amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. “Investitsiyalar” tushunchasi lotincha “invest” so‘zidan olingan bo‘lib, qo‘ymoq degan ma‘noni anglatadi. Investitsiya jarayonining tarkibi ma‘lum ishtirokchilar va investorlarni ko‘zda tutadi. Investitsiyalar (investments) yoki investitsiya resurslari deganda ko‘chmas mulk, mol-mulk, mashinalar, uskuna texnologiyalar, pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar, mulk huquqlari, litsenziyalar, innovatsiyalarni moddiy mahsulotlarda ishlab chiqarish va mazkur ishlab chiqarish tizimi ko‘lamlari va sur‘atlari o‘sishini ta‘minlash maqsadida kapital qo‘yish usuli sifatida kiritiladigan intellektual qiymatlar tushuniladi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar innovatsiyalarga moliyaviy, moddiy va boshqa resurs turlarini joylashtirish va daromad olishni ta‘minlashi mumkin bo‘lgan vositani o‘zida mujassamlashtiradi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyatning resurs ta‘minoti asosini investitsiyalar tashkil etadi. Ularning mavjud emasligi yangiliklarni yaratish va joriy etish jarayonining imkonsizligiga olib keladi. Investitsiyalar va innovatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligini investitsiyalar iqtisodiy, ilmiy, tashkiliy, ekologik, ijtimoiy va boshqa sohalarga qo‘yilishi mumkinligida ham ko‘rish mumkin. Va faqat innovatsion yondashuvgina mazkur sohalarga investitsiyalar qo‘yishdan sezilarli samaralar va kutilayotgan natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Mironov S. M. Innovatsionniye protsessi v otechestvennoy ekonomike // Delovaya slava Rossii. 2023. № 4. – S.23.
2. Romash M.V., Shevchuk V.I. Finansirovaniye i kreditovaniye investitsiy. - Minsk: «Knijniy dom», «Misanta», 2004. -157 s.
3. G‘ozibekov D.G‘.Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. -26 b.
4. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.:2003. -29 b.
5. Umarov S.R. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish i.f.n. diss.avtoreferati: BMA. –T.: 2008. -22 b.
6. Mustafaqulov SH.I. “O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtoreferati. – T.: 2017 y.
7. Almatova D.S. Tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etishning mintaqaviy xususiyatlari. Monografiya. – T.: “Noshir”, 2013. – 194 b.
8. Samuelson P. Ekonomika / per. s angl. - M.: NPO «Algon», 1992. T. 1. - 333 s.